



## “O‘TGAN ZAMON ANIQLIK FE’LI” VA “PAST SIMPLE” ZAMONLARINING SEMANTIK QIYOSI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo‘ldashaliyevich  
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
[ismonaliyevjamoliddin@gmail.com](mailto:ismonaliyevjamoliddin@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0006-7022-5055

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi **-di** affiksi bilan hosil qilinuvchi o‘tgan zamon fe’l shakli va ingliz tildagi **o‘tgan oddiy (Past Simple)** zamonlarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Bu ikki zamonning semantik jihatdan umumiy va farqli tomonlari tilshunoslarning nazariyalari, nazariy va badiiy adabiyotlardan olingan empirik dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** fe’l, zamon, affiks, semantik xususiyat, nutq momenti.

**Abstract:** This article analyzes the semantic characteristics of the past tense verb form in Uzbek – formed using the “-di” suffix – and the Past Simple tense in English. The semantic similarities and differences between these two tenses are illustrated based on linguistic theories and empirical evidence from theoretical and literary sources.

**Key words:** verb, tense, affix, semantic feature, moment of speech

O‘zbek tilining o‘tgan zamonlar tizimidagi **-di** affiksi orqali hosil qilinuvchi *o‘tgan zamon aniqlik fe’li* shartli ravishda ingliz tilidagi *o‘tgan oddiy zamonga (Past Simple tense)* tenglashtirilishi mumkin. O‘zbek va ingliz tillaridagi bu zamonlarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ularning umumiy jihatlariga duch keldik. Ulardagi asosiy umumiy jihat, eng avvalo, ish-harakatining nutq momentidan oldin sodir bo‘lishidadir. *O‘tgan zamon aniqlik fe’lida* ish-harakatini aniq va qat’iy tarzda sodir bo‘lishi, undagi tugallikka urg‘u beriladi. *O‘tgan oddiy zamon (Past Simple)* qonuniyatlarida ham bu xususiyatlar aniqlanadi. Masalan:

*I went into the shop yesterday. I bought some gloves<sup>1</sup>.*

Ushbu *o‘tgan oddiy zamondagi (Past Simple)* misolni o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, bu gaplar aynan o‘tgan zamon aniqlik fe’li orqali ifodalab beriladi: *Men kecha do‘konga kirdim. Men qo‘lqop sotib oldim.*

Bundan ko‘rinadi-ki, o‘zbek va ingliz tillaridagi bu ikki zamonda ham to hozirgacha amalga oshganlik, aniqlik, qat’iylik, tugallik xususida umumiylik bor.

*O‘tgan zamon aniqlik fe’li* haqidagi manbalarning aksariyatida bu fe’l zamoni “ish-harakatining sodir bo‘lganiga so‘zlovchining o‘zi guvoh bo‘lganligini,

<sup>1</sup> Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994. –P.87.



ko'z o'ngida sodir bo'lganligini<sup>2</sup> ifodalaydi deb ta'rif beriladi, ammo o'tgan oddiy zamonni (*Past Simple*) tadqiq etishda bu kabi qonuniyat kuzatilmadi. Shunday bo'lsada, bu nazariya bu ikki zamon bir-birini inkor etadi degan mazmunni keltirib chiqarmaydi, chunki A.Hojiyev fikriga ko'ra, ish-harakatini aniq sodir bo'lganiga ishonib gapirilganida so'zlovchining o'zi guvohi bo'lmagan bo'lsada o'tgan zamon aniqlik fe'li qo'llanishi mumkin<sup>3</sup>. Demak, o'tgan zamon aniqlik fe'li qo'llanilishi uchun ish-harakat albatta ko'z o'ngida sodir bo'lgan bo'lishi shart emas.

Quyida o'tgan oddiy zamon (*Past Simple*) ikkita misol keltiramiz va ularni tarjima qilishda o'tgan zamon aniqlik fe'lidan foydalanamiz:

1. *He got all excited when he heard the news*<sup>4</sup>. (U yangilikni eshitgach, butunlay hayajonga tushdi.)

2. *Chris went to bed later than usual*<sup>5</sup>. (Kris odatdagiga qaraganda kechroq uyquga ketdi.)

Ingliz tili grammatikasida o'tgan oddiy zamon (*Past Simple*) yuzasida so'z yuritilganida "shaxsiy guvohlik" haqida ma'lumot keltirilmasa-da, yuqoridagi misollarda hodisalarni sodir bo'lishiga so'zlovchilarni shaxsan guvoh bo'lganligini tushunish qiyin emas.

O'tgan zamon aniqlik fe'li tadqiqi mobaynida "bu fe'l formasi takrorlanmagan, davomli bo'lmagan, muayyan bir vaqt ichida bo'lib o'tgan harakatni ifodalashi va shu xususiyatiga ko'ra o'tmishdagi voqea-hodisalarni xronologik ravishda bayon qilish imkoniyatiga ega ekanligi<sup>6</sup>" haqida ma'lumot keltirdik. O'tgan oddiy zamon (*Past Simple*) ham o'tmishdagi hodisalarni xronologik ravishda hikoya qilish xususiyatiga ega. Quyidagi misolda ma'lum muddat oralig'ida ketma-ket sodir bo'lgan ish-harakati xronologik tarzda keltirilganini ko'rishimiz mumkin:

*They walked up the road together to the old man's shack and went in through its open door. The old man leaned the mast with its wrapped sail against the wall and the boy put the box and the other gear beside it.* (Ernest Hemingway, *The old man and the sea*, P.4.)

Ushbu misol o'zbek tiliga tarjima qilinganida ham undagi hodisalar o'tgan zamon aniqlik fe'lida keltirilgan bo'lar edi:

*Ular cholning kulbasi tomon yo'l bo'ylab birgalashib bordilar va ochiq eshikdan ichkari kirdilar. Chol yelkan o'ralgan machtani devorga suyab qo'ydi,*

<sup>2</sup> Гуломов А. Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954. – Б.24./ Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.136./ Абдурахмонов Ф. Умумий тахрир. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.289.

<sup>3</sup> Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.136

<sup>4</sup> Carter R., McCarthy M. Cambridge grammar of English. –United Kingdom: Cambridge University Press, 2006. – P.38.

<sup>5</sup> Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994. – P.253.

<sup>6</sup> Абдурахмонов Ф. Умумий тахрир. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.288.





*bola esa quti va boshqa jihozlarni uning yoniga qo'ydi. (Ernest Hemingvey, Chol va dengiz, B.4.)*

Kuzatishlarimiz mobaynida ingliz tilidagi *Past Simple* (O'tgan oddiy) zamon har doim ham *o'tgan zamon aniqlik* fe'li bilan mos kelmasligi mumkinligini ham guvohi bo'ldik.

Ingliz tilida yangi bo'lmagan, ancha oldin sodir bo'lgan ish-harakati uchun *o'tgan oddiy (Past Simple)* zamon qo'llanadi<sup>7</sup>:

*The earthquake happened in 1905<sup>8</sup>. –Bu zilzila 1905-yilda sodir bo'lgan.*

Bizning fikrimizcha, bu misolda “sodir bo'ldi” deb tarjima qilish biroz nomutanosib bo'lar edi. “Sodir bo'ldi” deb aytish hodisa “yaqinda bo'lgandek” yoki “so'zlovchi bunga guvoh bo'lgandek” hissiyot beradi. Shu tufayli bu misolda “sodir bo'lgan” deb bayon qilish maqsadga muvofiq. Quyida qo'shimcha misollar keltiramiz:

*The Romans had a huge Empire<sup>9</sup>. –Rimliklar katta imperiyaga ega bo'lgan.*

*Mozart was a composer. He wrote more than 600 pieces of music<sup>10</sup>. –Mozart bastakor bo'lgan. U 600 dan ziyod musiqa yozgan.*

Bu misollarda ham hodisa ancha oldin sodir bo'lganligini inobatga olib **-di** affiksi bilan hosil qilinadigan *o'tgan zamon aniqlik* fe'li emas, **-gan** affiksi bilan hosil qilinadigan *tarixiy o'tgan zamon* qo'llanishi tabiiyroq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994.
2. Гуломов А. Фейл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954.
3. Хожиев А. Фейл. – Тошкент: Фан, 1973.
4. Carter R., McCarthy M. Cambridge grammar of English. –United Kingdom: Cambridge University Press, 2006.
5. Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994.
6. Абдурахмонов Ф. Умумий тахрир. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966.
7. Murphy R. English Grammar in Use. –The UK: Cambridge university press, 2019.
8. Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994.

<sup>7</sup> Murphy R. English Grammar in Use. –The UK: Cambridge university press, 2019. –P.26.

<sup>8</sup> Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994. –P.87.

<sup>9</sup> Eastwood J. Oxford guide to English grammar.–London: Oxford university press, 1994. –P.87.

<sup>10</sup> Murphy R. English Grammar in Use. –The UK: Cambridge university press, 2019. –P.26.